

УДК 37

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ПРЕПОДОВАНИЯ И НОВЕЙШИХ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ВО ВСЕСТОРОННЕМ РАЗВИТИИ МОЛОДЁЖИ

Н.Т. Тошева<sup>1</sup>, Ш. Бобомуродова<sup>2</sup>

### Аннотация

В статье раскрыты преимущественные аспекты использования интерактивных методов преподавания и новейших информационно-коммуникационных технологий во всестороннем развитии молодёжи.

*Ключевые слова:* информационные ресурсы, мультимедиа, электронный учебник, интернет, аппаратные программы, педагогическое содружество.

XXI asr insoniyat rivojlanishining yangi bosqichi, zamonaviy madaniyat tizimida chuqur o'zgarishlarga olib keladigan axborotlashgan jamiyat qurilishi bosqichi bo'lib hisoblanadi. Fan texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda o'quvchi va o'qituvchining mehnat unumdorligini oshirish, ta'lim jarayonini eng zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan takomillashtirish, ta'lim berishda zamonaviy texnik, didaktik vositalardan foydalanish muammosi pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biri bo'lib kelmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri fan-texnikaning rivojlanishi tufayli o'quvchilarga etkazib berilayotgan axborot miqdorining kattaligi, uning soat sayin yangilanib borishidir. Bu axborotlarni o'quvchilarga an'anaviy usul va vositalardan foydalanib etkazib berish esa murakkablashib bormoqda. Bu muammolarni hal qilish uchun yangi pedagogik texnologiyalarning samarali uslub va vositalaridan, zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanishni davr taqozo etmoqda. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimining uzviyligini ta'minlash, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish masalasi pedagogikaning asosiy maqsadlaridan biridir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi pedagogikaga qo'yiladigan zamon talablari majmuini belgilab beradi. Demak o'qituvchi o'z oldiga qo'yilgan murakkab, mas'uliyatli va dolzarb vazifalarni bajarish uchun hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan yangicha qarashlarni shakllantirish xislatlariga ega bo'lishi kerak. Ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyani tadbiiq etish va zamonaviy o'quv - texnika vositalaridan foydalanish uchun, avvalo, o'qituvchi ilg'or pedagogik texnologiya tushunchasining mohiyatini, uning shakllari (turlari)ni mukammal o'zlashtirgan bo'lishi lozim.

Pedagogik hamkorlikka asoslangan ta'lim berish jarayonini amalga oshirishga qodir bo'lgan o'qituvchi shaxsida quyidagilar mujassam bo'lishi kerak:

- ta'limning bosh maqsadidan kelib chiqqan holda o'quv topshiriqlarini to'g'ri va aniq tanlay olishlari;
- o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stirishga asoslangan ta'limni tashkillashtirishlari;
- o'quvchilar bilan pedagogik hamkorlik o'rnatish va do'stona munosabatlarga kirishish sohasidagi ehtiyojlarini qondira olishlari;
- ta'lim texnologiyalaridan muntazam, samarali foydalana olishlari;
- zamonaviy pedagogik-psixologik bilimlar, axborot texnologiyalari bilan qurollangan bo'lishlari;
- pedagogik mahoratga ega bo'lishlari lozim.

Ta'lim jarayonida faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning pedagogik fikrlashi, kasbiy omilkorligi tamomila takomillashib o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, pedagoglar o'rtasida interfaol o'qitishga bo'lgan ehtiyoj kasbiy mahoratni rivojlantirish istagi tez

<sup>1</sup>Тошева Нурзода Тоштемуровна, старший преподаватель, Бухарский государственный университет, Узбекистан.

<sup>2</sup>Бобомуродова Шахноза – студентка 1 курса, Бухарский государственный университет, Педагогический факультет, Узбекистан.

sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Ta'lim jarayonida har qanday interfaol usul to'g'ri va maqsadli qo'llanilganda o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Interfaol usuldagi mashqlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ta'lim mazmunini o'zlashtirish munosabatlarini kuchaytiribgina qolmasdan ikki taraflama faollashish demakdir.

Ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan interfaol mashqlar o'qituvchi - o'quvchi, o'quvchi - o'quvchi hamkorligiga asoslangan bo'ladi. Talabaga bilim tayyor holda berilmasligi kerak, unga bilimlarni turli manbalar (darslik, qo'llanma, matn, elektron vositalar, internet texnologiya)lardan mustaqil o'qib olishga o'rgatish va izlanishlar orqali ta'lim olishini shakllantirish zarur. Chunki shiddat bilan rivojlanib borayotgan axborot kommunikatsion texnologiyalardan bugungi kun yoshlari axborot oqimining tezligi yordamida xabardor bo'lishmoqda. Qo'l telefonlaridan, planshet va boshqa texnik vositalardan ta'lim jarayonida foydalanishni tashkillashtirish yoshlarni axborot kommunikatsion vositalardan foydalanish madaniyatini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shadi.

Bugungi kunda talabalarga bilim berish jarayonida masofadan turib o'qitish juda zarur vositalardan biri bo'lib, jahon miqyosida bu sohada katta yutuqlarga erishilmoqda. Bunga misol tariqasida Moodle sistemasida masofadan ta'lim berishni misol qilib olish mumkin. Moodle sistemasi bepul kengaytirilgan dasturiy kompleks bo'lib, o'zining funksional imkoniyatlariga asosan keng miqyosda masofaviy ta'lim oluvchilarga qulayliklar yaratib beradi. Mamlakatimizning nufuzli oliy ta'lim dargohlarida bu sistemadan foydalanib ta'lim berish jarayoni yo'lga qo'yilmoqda. Ta'limning bu sistemasi mustaqil ta'lim olishni, har bir o'quv predmetini mustaqil o'rganish imkoniyatini yaratib beradi.

Pedagogik ta'lim jarayonida elektron darsliklardan, o'quv qo'llanmalaridan, elektron ko'rgazmali materiallar, kompyuter grafikasi(3D) imkoniyatlaridan foydalanish ta'lim samaradorligining oshishiga, malakali raqobatbardosh kadrlarning etishib chikishiga zamin yaratib beradi.

#### *Foydalanilgan adabiyotlar*

1. Закирова Ф. М. Информационное обеспечение образовательного процесса и его структура. Педагогика таълим. - Тошкент, 2004. - №5, 34-35б.
2. Pargpiev A., Maraximov A., Hamdamov R., Begimkulov U., Bekmuradov M., Tayloqov N. Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari. Oliy ta'lim muassasalari uchun, O'zME davlat ilmiy nashriyoti.-T.: 2008, 196 b.

© Н.Т. Тошева, Ш. Бобомуродова, 2018.